

**Samarqand Davlat Universiteti , Kattaqo'rg'on filiali , Pedagogika fanlari doktori ,
Docent. Mustafayev Shomurod Normo'minovich taqrizi ostida**

Sultonaliyeva Zulayxo

zulayhosultonaliyeva@gmail.com

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

O'ZBEKISTONDA RAQOBATCHILIK MUHITINI SHAKLLANTIRISH VA UNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Raqobat muhitini shakllantirish birinchi navbatda bozor iqtisodiyotida xaridor uchun yengilklarni yaratadi. Bozor subyektlarining iqtisodiy manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lishidan raqobat muhiti shakllanadi. Bozor iqtisodiyoti o'zining yetuklik darajasi va rivojlanish xususiyatlaridan qat'iy nazar raqobatning mavjud bo'lishini taqozo etadi. Shu bilan birga, bozor iqtisodiyoti rivojlanib borishi bilan raqobatchilik munosabatlari ham takomillashib, o'z shakllarini o'zgartirib boradi.

Kalit so'zlari: Raqobat, monopoliya, tovar, bozor subyekti, bozor iqtisodiyoti, halol raqobat.

Kirish. Raqobat bozor iqtisodiyotining va tovar xo'jaligining eng muhim belgilarida biri va shu bilan birga uni rivojlantirishning vositasi hisoblanadi. Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda raqobatchilik muhiti uzoq davr davomida o'z-o'zidan rivojlanib vujudga kela boshlagan. Bu esa asta-sekinlik bilan raqobat muhitini keltirib chiqargan. Raqobat muhiti shakllanishi birinchi navbatda sifatni oshiradi, narxlarning barqarorlashiga olib keladi. Iqtisodiyotda monopoliya prinsiplarini kuchayib borishi raqobat muhitini cheklab boradi. Shuning uchun ham raqobat muhitini vujudga keltirish uchun davlat ham qatnashadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada O'zbekistonda raqobatchilik muhitini shakllantirish va uning ahamiyati haqida muhokama qilinadi. Raqobat va uning asosiy tarkibiy omillari va qismi tavsiflanadi. Raqobatning turlari va uning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyati o'r ganiladi. Raqobatchilik muhitini shakllantirish uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tavsiflanadi.

Tahlil va natijalar. Raqobatning amal qilishi ma'lum shart-sharoitlar mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Bu shart-sharoitlar faqat bozor munosabatlari qaror topgan muhitda bo'lishi mumkin. Shunday ekan, bozor iqtisodiyotini yuzaga keltirish ayni vaqtda raqobatchilik muhitining shakllanishini bildiradi. Bozor iqtisodiyotida raqobat shakllanar ekan birinchi navbatda sifatni ta'minlaydi. Raqobat hamma joyda bo'lishi mumkin, masalan tovarlarni yetkazib berish bo'yicha, sifatli tovarlar va yana turli xil bo'ladi.

Respublikamizda aynan sog'lom raqobat sharoitni yaratish bo'yicha qator chora-tadbirlar olib borilmoqda. Jumladan Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek "kuchli talab va raqobat iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishni obyektiv shart qilib qo'yemoqda. Bu borada ham juda ko'p yechilmagan muammolar bor.

Ya'ni eski ma'muriy-taqsimot tizimi qoliplaridan butunlay voz kechish, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini yanada cheklash, erkin tadbirkorlik faoliyati uchun amaliy kafolatlarni ta'minlash, iqtisodiyot va biznesni barqaror rivojlantirish, to'laqonli bozor infratuzilmasini shakllantirish yo'lidagi mavjud g'ov-to'siqlarni bartaraf etishimiz zarur". O'zbekistonda davlatning raqobatchilik muhitini shakllantirishga qaratilgan siyosatida

xususiy lashtirish, davlat mulki hisobidan mulkchiliikning boshqa shakllarini vujudga keltirish asosiy o'rinni tutadi.

O'zbekistonda samarali raqobat muhitini yaratish uchun quyidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishini taqozo etadi:

- a) iqtisodiyotda davlat monopolizmining har qanday namoyon bo'lishini maksimal darajada bartaraf etish. Buning uchun tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish tizimini takomillashtirish uchun nisbatan qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan chuqur institutsional islohotlar zarur;
- b) bozor sharoitida vujudga kelayotgan monopoliyalarning bozordagi o'z ustunlik mavqelarini suiste'mol qilish imkoniyatlarining oldini olish. Davlat muassasalari raqobatning rivojlanishini ta'minlashlari lozim. Busiz samarali innovatsiyalar, past xarajatlar va narxlar, mahsulotning yuqori sifatiga erishish, boshqacha aytganda, butun iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish mumkin emas.

Bugungi kunda O'zbekistonda halol raqobatni oshirishga qaratilgan qator char-tadbirlar amalga oshirilyapti.

Raqobat xaridorlarga qulay shat-sharoitlar yaratib beradi, bu nafqat tovar sifati bo'yicha balkim yetkazib berish bo'yicha ham rivojlanadir. Raqobatni shakllantirish uchun monopoliyaga qarshi kurashish kerak. Har bir mamlakatdagi aniq vaziyat, ya'ni iqtisodiyotning monopollashuv darjasasi uning miqqosi va tavsifiga qarab, bu siyosat erkin raqobat muhitini yangidan yaratish, uni saqlab qolish, zarur bo'lganda qaytadan tiklash. raqobat usullarini qaror toptirish kabilarga qaratiladi. Tahlil qiladigan bo'lsak raqobatning shakllanishi tadbirkorliklar uchun ham o'z ustilarida ishslash va o'z bizneslarini rivojlanishiga olib keladi. Raqobat tadbirkorlarga yangi imkoniyatlar berishi mumkin, ularning ishlarini to'xtatib qo'yamaydi. Keyingi yillarda Davlat reyestriini yuritish uslubiyotini takomillashtirib borish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi, chet el investitsiyalarining kirib kelishi natijasida barpo etilayotgan korxonalar salmog'ining oshishi va boshqa omillar ta'sirida ko'pgina monopolist korxonalar tovar bozorlaridagi ulushining kamayishi munosabati bilan Davlat reyestridan chiqarilmoxda. Kichik biznezlarni ko'paytirish va ularning sifatini oshirish uchun raqobat muhiti zarur hisoblanadi.

Raqobat iste'molchilar o'rtasida ham sodir bo'lishi mumkin. Ular tovarlarini qulay va arzon narxlarda sotib olishga harakat qiladilar. Xaridorlar arzon va sifatli tovarni olishga kurshadilar. Ko'proq nafilikkha ega bo'lishni xohlashadi. Umuman olganda raqobat ko'p qirrali iqtisodiy hodisa hisoblanadi. U bozorning barcha subyektlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalovchi hodisalardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Raqobat - xo'jalik yuritishning asosiy usuli hisoblangani uchun raqobat muhitining shakllanishi bozor iqtisodiyotining rivojlanish darajasiga bog'liqidir. Raqobat muhiti deb bozor munosabatlari ishtirokchilarining xo'jalik yuritishda teng imkoniyatlarni ta'minlaydigan iqtisodiy, qonuniy, tashkiliy va siyosiy sharoitlar majmuasiga aytildi. Raqobat muhitining mayjudligi - alohida olingan firmaning bozor sharoitida erkin harakat qilib hukmronlik mavqeiga erishishiga halaqit beruvchi asosiy omildir. Monopoliani tartibga solish - miqdoran hisoblash imkoniyati kam bo'lgan juda murakkab jarayondir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Shodmonov Sh.Sh., G‘afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). - T., “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2010. - 756 b
2. <https://in-academy.uz>
3. O‘lmasov Ahmadjon. Iqtisodiy bilim asoslari: (Akademik litsey va kasb hunar kollejlari uchun darslik) -T .:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodi yuvi, 2008.-144 b
4. Xolmuradovich X. B. et al. GOVERNMENT AND NON-GOVERNMENT FORMS OF BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP SUPPORT //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T.
5. . G‘.M. Porsaev, B.Sh. Safarov, D.Q. Usmanova. Raqamli iqtisodiyot asoslari. (Darslik) – T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2020. 372
6. .Сатторкулов, О. Т. Развитие национальной инновационной системы и её особенности / О. Т. Сатторкулов, Б. Б. Тошбоев. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016.
7. Abdurahmonov Q.X., Toxirova X.T. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish /O‘quv. qo‘l. TDIU,— 2019. – 232. B
8. Курпаяниди, К.И., & Ашуроев, М.С. (2018) Муваффақиятли бизнес юритиш.
9. Abdurahmonov A. Aholi statistikasi. O‘quv qo‘llanma Darslik. – T.: Iqtisodiyot. –2021.— 299b.
10. Курпаяниди, К. И., & Ашуроев, М. С. (2019). Ўзбекистонда тадбиркорлик мухитининг замонавий ҳолати ва уни самарали ривожлантириш муаммоларини баҳолаш. Монография. GlobeEdit Academic Publishing, European Union.